


IV. INVESTITSIYA VA QURILISH ISHLARI

2024-yil yanvar-iyun oylarida 11 752,1 mlrd. so‘m asosiy kapitalga investitsiyalar o‘zlashtirilib, 2023-yilning yanvar-iyun oylariga nisbatan 127,3 % ni tashkil etdi.

Asosiy kapitalga investitsiyalarning tarkibida 80,3% yoki 9 433,0 mlrd. so‘m investitsiyalar jalb etilgan mablag‘lar hisobidan moliyalashtirilgan bo‘lsa, korxona, tashkilot va aholining o‘z mablag‘lari hisobidan 19,7 % yoki 2 319,1 mlrd. so‘m moliyalashtirildi.

Shuningdek, markazlashgan moliyalash-tirish manbalari hisobidan asosiy kapitalga investitsiyalar hajmi 872,3 mlrd. so‘mni tashkil etgan bo‘lsa, markazlashmagan moliyalashtirish manbalari hisobidan 10 879,8 mlrd. so‘m investitsiyalar o‘zlashtirildi.



Shahar va tumanlar kesimida asosiy kapitalga investitsiyalar

	Jami		shu jumladan: xorijiy investitsiya va kreditlar	
	mlrd. so‘m	o‘sish sur’ati, % da	mlrd. so‘m	o‘sish sur’ati, % da
Andijon viloyati	11 752,1	127,3	8 487,3	134,8
Andijon sh.	1 279,6	98,6	610,6	89,7
Xonobod sh.	157,9	2,7 m.	101,1	11,1 m.
<i>tumanlar:</i>				
Oltinko‘l	506,0	186,0	140,5	2,2 m.
Andijon	1 953,6	3,5 m.	1 726,4	6,9 m.
Baliqchi	445,0	116,7	364,4	152,0
Bo‘ston	324,5	4,6 m.	275,3	42,5 m.
Buloqboshi	1 682,4	47,3	1 574,0	46,0
Jalaquduq	240,8	68,9	137,4	73,9
Izboskan	268,8	158,7	191,0	2,8 m.
Ulug‘nor	289,4	2,1 m.	258,5	2,9 m.
Qo‘rg‘ontepa	434,5	105,1	239,7	133,1
Asaka	2 542,4	4,3 m.	1 672,9	4,2 m.
Marhamat	470,3	2,0 m.	372,2	3,7 m.
Shahrixon	432,3	104,9	326,7	168,4
Paxtaobod	350,3	130,2	239,6	2,3 m.
Xo‘jaobod	374,2	82,9	257,0	83,3

Moliyalashtirish manbalari bo'yicha asosiy kapitalga investitsiyalar

Hajmi, mldr. so'm

O'sish sur'ati, % da



Moliyalashtirish manbalari bo'yicha asosiy kapitalga investitsiyalar, jamiga nisbatan, % da

Andijon viloyati



2024-yil yanvar-iyun oylarida korxona va tashkilotlarning o'z mablag'lari hisobidan moliyalash-tirilgan asosiy kapitalga investitsiyalar— 1 707,6 mlrd. so'm yoki jami asosiy kapitalga investitsiyalarning 14,5 % ini tashkil etdi. Aholi mablag'lari hisobidan jami asosiy kapitalga investitsiyalarning 5,2 % yoki 611,5 mlrd. so'm o'zlashtirildi.


To'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar va kreditlar hisobidan o'zlashtirilgan investitsiyalar hajmi 8374,9 mlrd. so'mni yoki 71,3 % ni tashkil etdi.

Shuningdek, tijorat banklari kreditlari va boshqa qarz mablag'lari hisobidan 185,8 mlrd. so'm, O'zbekiston Respublikasi kafolati ostidagi xorijiy kreditlar 112,4 mlrd. so'm, Tiklanish va taraqqiyot jamg'armasi 210,4 mlrd. so'm, Respublika byudjeti 506,3 mlrd. so'm, Suv ta'minoti va kanalizatsiya tizimlarini rivojlantirish jamg'armasi tomonidan 43,2 mlrd. so'm miqdorida asosiy kapitalga investitsiyalar o'zlashtirildi.


Moliyalashtirish manbalari bo'yicha asosiy kapitalga investitsiyalar, jamiga nisbatan, % da



Asosiy kapitalga investitsiyalarning statistik hisobi, qo'shimcha qiymat solig'ini qo'shgan holda, hisobot davrida amaldagi narxlarda, to'lov amalga oshirilgan paytdan qat'iy nazar, haqiqatda o'zlashtirilgan hajm miqdorida amalga oshiriladi.



Moliyalashtirish manbalari bo'yicha asosiy kapitalga investitsiyalar, jamiga nisbatan, % da







Andijon viloyati bo'yicha asosiy kapitalga investitsiyalarning texnologik tarkibida mashina, uskuna va inventarlarga 5 394,8 mlrd. so'm investitsiyalar o'zlashtirilgan bo'lib, jami investitsiyalarning 45,9 % ini tashkil etdi, qurilish-montaj ishlari bo'yicha 4 983,6 mlrd. so'm (jami investitsiyalardagi ulushi 42,4 %) va boshqa xarajatlarga 1 373,7 mlrd. so'm (11,7 %) o'zlashtirildi.

Hududlar kesimida jami asosiy kapitalga investitsiyalar hajmida qurilish-montaj ishlarining ulushi bo'yicha eng yuqori ko'rsatkich Andijon tumanida kuzatildi 43,9 % yoki 857,2 mlrd. so'm.

Qurilish-montaj ishlarining ulushi bo'yicha eng quyi daraja Asaka tumanida kuzatilib, 17,5% ni yoki 445,9 mlrd. so'mni tashkil etdi. Shuningdek, Asaka tumanida mashina, uskunalar va inventarlarga xarajatlar bo'yicha eng yuqori ko'rsatkich 58,9 % yoki 1 498,6 mlrd. so'mni tashkil etdi.



Asosiy kapitalga investitsiyalarning takror ishlab chiqarish tarkibi, jamiga nisbatan % da



Asosiy kapitalga investitsiyalarning texnologik tarkibi, jamiga nisbatan % da

Asosiy kapitalga investitsiyalar – yangi asosiy fondlarni sotib olish va takror ishlab chiqarishga yo'naltirilgan xarajatlar majmuini bildiradi.



**Asosiy kapitalga investitsiyalarning takror ishlab chiqarish
va texnologik tarkibi, jamiga nisbatan % da**

Andijon viloyati



Andijon shahri



Xonobod shahri



Asosiy kapitalga investitsiyalarning takror ishlab chiqarish va texnologik tarkibi, jamiga nisbatan % da

Oltinko'l tumani



Andijon tumani




Baliqchi tumani




Asosiy kapitalga investitsiyalarning takror ishlab chiqarish va texnologik tarkibi, jamiga nisbatan % da

Bo‘ston tumani



Buloqboshi tumani



Jalaquduq tumani



**Asosiy kapitalga investitsiyalarning takror ishlab chiqarish
va texnologik tarkibi, jamiga nisbatan % da**

Izboskan tumani



Ulug‘nor tumani



Qo‘rg‘ontepa tumani




Asosiy kapitalga investitsiyalarning takror ishlab chiqarish va texnologik tarkibi, jamiga nisbatan % da


Asaka tumani



Marhamat tumani



Shahrixon tumani



Asosiy kapitalga investitsiyalarning takror ishlab chiqarish va texnologik tarkibi, jamiga nisbatan % da

Paxtaobod tumani




Xoʻjaobod tumani



Statistik tahlilni oʻtkazish maqsadlarida asosiy kapitalga investitsiyalar quyidagi asosiy kesimlarda shakllanadi: qoʻyilma turlari, texnologik, takror ishlab chiqarish tarkiblari, iqtisodiy faoliyat turlari, moliyalashtirish manbalari boʻyicha.



Andijon viloyatida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha asosiy kapitalga investitsiyalar, jamiga nisbatan, % da



Asosiy kapitalga xorijiy investitsiya va kreditlar





To‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar hisobidan moliyalashtirilgan asosiy kapitalga investitsiyalar 4 559,5 mlrd. so‘mni yoki, 2023-yilning mos davriga nisbatan 105,6 % tashkil etdi.



O‘zbekiston Respublikasi kafolati ostidagi xorijiy kreditlar hisobidan moliyalashtirilgan asosiy kapitalga investitsiyalar 112,4 mlrd. so‘mni yoki, 2023-yilning mos davriga nisbatan 39,5 % ni tashkil etdi.



Kafolatlanmagan xorijiy kreditlar va boshqa xorijiy investitsiyalar hisobidan moliyalashtirilgan asosiy kapitalga investitsiyalar 3 815,4 mlrd. so‘mni yoki, 2023-yilning mos davriga nisbatan 2,3 martani tashkil etdi.




**Shahar va tumanlar kesimida asosiy kapitalga xorijiy investitsiya
va kreditlar, mld. so‘m**

	To‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar	O‘z.R. kafolati ostida xorijiy kreditlar	Kafolatlanmagan boshqa investitsiya va kreditlar
Andijon viloyati	4 559,5	112,4	3 815,3
Andijon sh.	192,7	54,5	363,4
Xonobod sh.	39,2	-	61,9
<i>tumanlar:</i>			
Oltinko‘l	140,5	-	-
Andijon	879,7	18,7	828,0
Baliqchi	-	-	364,4
Bo‘ston	6,3	-	269,0
Buloqboshi	1 508,0	39,3	26,6
Jalaquduq	137,4	-	-
Izboskan	70,4	-	120,6
Ulug‘nor	252,1	-	6,4
Qo‘rg‘ontepa	-	-	239,7
Asaka	875,3	-	797,6
Marhamat	62,8	-	309,3
Shahrixon	188,5	-	138,2
Paxtaobod	206,6	-	33,0
Xo‘jaobod	-	-	257,0

 **To‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar** – ustav kapitalda 10 foizdan kam bo‘lmagan ulushga ega xorijiy investorning moliyaviy va nomoliyaviy qo‘yilmalaridir.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha xorijiy investitsiya va kreditlar tarkibi



Asosiy kapitalga investitsiyalar **iqtisodiy faoliyat turlari** bo'yicha amaldagi faoliyat turlari tasniflagichiga IFUT-2 ga asosan taqsimlanadi.

Andijon viloyatida ijtimoiy soha obyektlarini ishga tushirish



Investorlar – yuridik va jismoniy shaxslar bo'lib, qarorlarni qabul qiluvchi va o'z mablag'lari, qarz mablag'lari yoki jalb qilingan mablag'larni investitsiya ko'rinishida investitsion loyihalarga kiritishni amalga oshiruvchi hamda ulardan maqsadli foydalanilishini ta'minlab beruvchi investitsion faoliyat subyektlari hisoblanadi.

**Andijon viloyatida ijtimoiy soha obyektlarini
ishga tushirish**


	Turar-joylar, ming kv.m	Ulardan: qishloq joylardan ming kv.m	Suv tarmog‘i, km	Gaz tarmog‘i, km
Andijon viloyati	325,4	231,4	-	-
Andijon sh.	21,9	-	-	-
Xonobod sh.	2,9	-	-	-
<i>tumanlar:</i>				
Oltinko‘l	21,1	20,7	-	-
Andijon	14,5	13,6	-	-
Baliqchi	16,3	9,9	-	-
Bo‘ston	11,7	8,4	-	-
Buloqboshi	20,2	15,0	-	-
Jalaquduq	31,7	28,2	-	-
Izboskan	14,8	14,8	-	-
Ulug‘nor	2,7	2,7	-	-
Qo‘rg‘ontepa	33,2	21,1	-	-
Asaka	44,4	34,7	-	-
Marhamat	22,8	14,1	-	-
Shahrixon	23,9	17,3	-	-
Paxtaobod	32,0	23,7	-	-
Xo‘jaobod	11,3	7,2	-	-

Andijon viloyatida faoliyat ko‘rsatayotgan

2024-yilning 1-iyul holatiga Andijon viloyatida qurilish faoliyati bilan shug‘ullanayotgan korxona va tashkilotlarning umumiy soni 1 869 tani tashkil etdi.

Qurilish korxonalarining katta qismi, ya’ni 631 tasi yoki viloyatdagi jami korxonalarining 33,8 % Andijon shahrida joylashgan.

2020-2024-yillarning 1-iyul holatiga qurilish korxonalari soni, birlikda




Andijon sh.	631
Xonobod sh.	36
Oltinko‘l	98
Andijon	145
Baliqchi	76
Bo‘ston	100
Buloqboshi	49
Jalaquduq	37
Izboskan	80
Ulug‘nor	46
Qo‘rg‘ontepa	61
Asaka	183
Marhamat	68
Shahrixon	138
Paxtaobod	59
Xo‘jaobod	62




Shuningdek, Andijon shahrida 631 ta (viloyat bo‘yicha ularning jami soniga nisbatan 33,8 %), Andijon tumanida – 145 ta (7,8 %) qurilish korxonalari mavjud bo‘lib, qolgan hududlarga nisbatan kattaroq ko‘rsatkichiga ega.

Bajarilgan qurilish ishlari dinamikasi (yanvar-iyun uchun)

2024-yilning yanvar-iyun oylarida, Andijon viloyatida jami 3 726,0 mlrd. soʻmlik qurilish ishlari bajarilib, 2023-yilning yanvar-iyun oylariga nisbatan 104,1 % ni tashkil etdi.



Maʼlumot uchun: qurilish faoliyati - bu, oʻz kuchi bilan amalga oshirilgan qurilish ishlari, yangi qurilish, kapital va joriy taʼmirlash hajmlari va boshqalar natijasidir.



Shahar va tumanlarning qurilish ishlari hajmi va o'sish sur'atlari,
mlrd. so'm va foizda




2024-yilning yanvar-iyun oylarida shahar va tumanlar kesimida, xususan, Andijon shahri (1 551,7 mlrd. so'm), Andijon tumani (274,0 mlrd. so'm) va Shahrixon tumanida (284,7 mlrd. so'm) qurilish ishlaringin yuqori hajmi qayd etildi.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlari (2024-yilning yanvar-iyun oylarida)

2024-yilning yanvar-iyun oylarida Andijon viloyatida bajarilgan qurilish ishlarining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi quyidagicha:


- binolar va inshootlar qurish yo'nalishi 66,8 % ulushni tashkil etib, 2023-yilning yanvar-iyun oylariga nisbatan 85,7 % ni tashkil etdi;
- fuqarolik obyektlarini qurish yo'nalishi 21,5 % ulushni tashkil etib, 2023-yilning yanvar-iyun oylari nisbatan 215,0 % tashkil etdi;
- ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari yo'nalishi 11,7 % ulushni va 2023-yilning yanvar-iyun oylariga nisbatan 111,1 % ni tashkil etdi.




Qurilish ishlari hajmiga yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan qurilish pudrat shartnomalari asosida va xo'jalik usulida bajarilgan ishlar, shuningdek, sotish uchun mo'ljallangan obyektlar kiritiladi.

**Umumiy hajmdan yangi qurilish, rekonstruksiya, kengaytirish, texnik qayta qurollantirish ishlari ulushi, %da
(2024-yilning yanvar-iyun oylarida)**

Bajarilgan qurilish ishlarining katta qismi yangi bino va inshootlarni qurishga tegishli. Jami qurilish ishlarining 61,2 % yoki 2 281,9 mlrd. so‘m qurilish ishlari aynan iqtisodiyotda yangi ishlab chiqarish quvvatlari, turar-joy va boshqa jtimoiy obyektlarni yaratishga qaratilgan.



Yillar kesimida yangi qurilishning hajmi va ulushi




**Umumiy hajmdan yangi qurilish ishlari ulushi
(2024-yilning yanvar-iyun oylarida)**

	Yangi qurilish, rekonstruksiya, kengaytirish va texnik qayta qurollantirish, mlrd. so‘m	Ulushi, jamiga nisbatan % da
Andijon viloyati	2 281,9	100,0
Andijon sh.	878,1	38,5
Xonobod sh.	49,3	2,2
<i>tumanlar:</i>		
Oltinko‘l	114,1	5,0
Andijon	204,2	8,9
Baliqchi	72,4	3,2
Bo‘ston	88,4	3,9
Buloqboshi	63,1	2,8
Jalaquduq	71,4	3,1
Izboskan	99,9	4,4
Ulug‘nor	28,2	1,2
Qo‘rg‘ontepa	68,7	3,0
Asaka	92,8	4,1
Marhamat	80,8	3,5
Shahrixon	192,1	8,4
Paxtaobod	97,2	4,3
Xo‘jaobod	81,3	3,6

2024-yilning yanvar-iyun oylarida hududlar kesimida yangi qurilish ishlari bo‘yicha yuqori hajm, Andijon shahrida (878,1 mlrd. so‘m), Andijon tumanida (204,2 mlrd. so‘m), Shahrixon tumanida (192,1 mlrd. so‘m) va Oltinko‘l tumanida 114,1 mlrd. so‘m) qayd etildi.

**Korxonalar turlari bo‘yicha bino va inshootlar
qurilishi asosiy ko‘rsatkichlari, mld. so‘mda
(2024-yilning yanvar-iyun oylarida)**




Amaldagi statistik kuzatuv shakllarida 2015-yilning 1-yanvaridan boshlab, “O‘zbekiston Respublikasi iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha mahsulotlar (mahsulot, ish, xizmat) statistik tasniflagichi (MST)”ga muvofiq **“Qurilish” faoliyati bo‘yicha “faoliyat turi bo‘yicha o‘z kuchi bilan amalga oshirilgan ishlar hajmi”** ko‘rsatkichi qo‘llaniladi.

Bino va inshootlarni qurish bo‘yicha qurilish ishlari tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari ulushi 0,6 % ni tashkil etib, 2023-yilning yavar-iyun oylaridagi ko‘rsatkichga nisbatan 0,5 % punktga ko‘paydi.


Ushbu faoliyat turida kichik korxona va mikrofirmalar hissasiga to‘g‘ri kelgan ulush 2023-yilning yavar-iyun oylariga nisbatan 3,5 % punktga ko‘payib, 77,5 % ni tashkil etdi. Norasmiy sektorning ulushi esa 72,5 % tashkil etib, 2023-yilning yavar-iyun oylariga nisbatan 4,0 % punktga kamaydi.

**Shahar va tumanlar bo‘yicha bino va inshootlar qurilishi, mlrd. so‘mda
(2024-yilning yanvar-iyun oylarida)**



Ma’humot uchun: Bino va inshootlarni qurish faoliyat turi bo‘yicha bajarilgan qurilish ishlarining eng yuqori ulushi Shahrixon (76,9 %), Marhamat (76,0 %) va Paxtaobod tumanlari (74,8 %)da kuzatildi.


**Korxonalar turlari bo‘yicha fuqarolik obyektlarini qurishning asosiy
ko‘rsatkichlari, mldr. so‘mda
(2024-yilning yanvar-iyun oylarida)**



Fuqarolik obyektlari qurilishiga avtomobil yo‘llari, ko‘chalar, ko‘priklar va tunnellar, temir yo‘llar, aerodromlar, gavanlar va boshqa suv loyihalari, sug‘orish tizimlari, sanoat inshootlari, truboprovodlar va elektr uzatish liniyalari, ochiq sport komplekslari kabi og‘ir konstruksiyalarni qurish kiradi.

Fuqarolik obyektlarini qurish bo‘yicha yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining ulushi 17,6 % ni tashkil etdi. Ushbu faoliyat turida kichik korxona va mikrofirmalar hissasiga to‘g‘ri kelgan ulush 82,4 % ni tashkil etdi.

**Shahar va tumanlar bo‘yicha fuqarolik obyektlarini qurish, mlrd. so‘mda
(2024-yilning yanvar-iyun oylarida)**



Ma’lumot uchun: Fuqarolik obyektlarini qurish faoliyat turi bo‘yicha bajarilgan qurilish ishlarining eng yuqori ulushi Oltinko‘l tumanida (hududda bajarilgan qurilish ishlarining 32,9 %), Xonobod shahrida 33,2 %) va Izboskan tumanida (26,8 %) kuzatildi.

**Korxonalar turlari bo‘yicha ixtisoslashtirilgan qurilish ishlarining asosiy
ko‘rsatkichlari, mlrd. so‘m
(2024-yilning yanvar-iyun oylarida)**




Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari sayqallash, suvoqchilik, bo‘yoqchilik ishlari, pollar va devorlarni plitka bilan qoplash yoki parket, kovrolan, gulqog‘ozlar bilan qoplash, shuningdek, pollarni siklyovkalash, duradgorlik ishlari, ovoz izolyatsiyalash ishlari, tashqi hududlarni tozalash kabi bezatishga aloqador ishlarni o‘z ichiga oladi.

Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining ulushi 2023-yilning yanvar-iyuniga nisbatan 5,6 % punktga ko‘paydi va 6,1 % ni tashkil etdi.

Qolgan 93,9 % kichik korxona va mikrofirmalar hissasiga to‘g‘ri kelib, 2023-yilning yanvar-iyuniga nisbatan 6,1 % punktga kamaydi.


**Shahar va tumanlar bo‘yicha ixtisoslashtirilgan
qurilish ishlari hajmi, mlrd. somda
(2024-yilning yanvar-iyun oylarida)**



Ma’lumot uchun: Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari faoliyat turi bo‘yicha bajarilgan qurilish ishlarining eng yuqori ulushi Oltinko‘l tumanida (hududida bajarilgan qurilish ishlarining 18,4 %), Xonobod shahrida (17,6 %) va Bo‘ston tumanida (14,5 %) kuzatildi.

Korxonalar turlari bo'yicha qurilish ishlarining asosiy ko'rsatkichlari (2024-yilning yanvar-iyun oylarida)

Qurilish ishlari hajmining tarkibi, *mlrd. so'mda*




Qurilish ishlari hajmi yirik qurilish tashkilotlari, kichik korxona va mikrofirmalar hamda norasmiy sektorlarda amalga oshirilgan ishlar tarkibi bo'yicha shakllanadi.

Jami hajmga nisbatan ulushi



Yirik qurilish tashkilotlari



Kichik korxona va mikrofirmalar



Norasmiy sektor

2023-yilning yanvar-iyuni bilan solishtirganda
2,8 m. %

2023-yilning yanvar-iyuni bilan solishtirganda
109,0 %

2023-yilning yanvar-iyuni bilan solishtirganda
71,0 %

**Yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlaringin asosiy
ko‘rsatkichlari, jamiga nisbatan ulush
(2024-yilning yanvar-iyun oylarida)**




Yirik qurilish tashkilotlari tomonidan 2024-yilning yanvar-iyun oylarida bajarilgan qurilish ishlari hajmi 183,4 mlrd. so‘mni tashkil etdi. Ko‘rib chiqilayotgan davrda qurilish ishlari hajmi 2023-yilning yanvar-iyun oylariga nisbatan 276,8 % ni va ularning umumiy hajmdagi ulushi 3,1 % ga ko‘payib, 4,9 % ni tashkil etdi.

Xo‘jalik usulida bajarilgan ishlar hajmi qurilish egasi tomonidan hisobot davrida qurilish ishlariga sarflangan xarajatlaridan kelib chiqib aniqlanadi.




**Kichik korxona va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish
ishlarining asosiy ko‘rsatkichlari, jamiga nisbatan ulush
(2024-yilning yanvar-iyun oylarida)**



2024-yilning yanvar-iyun oylarida kichik korxona va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hissasiga jami qurilish ishlari hajmining 80,4% to‘g‘ri kelib, 2023-yilning yanvar-iyun oylariga nisbatan 3,3 % punktga kamaydi. Shuningdek, ular hissasiga to‘g‘ri kelgan qurilish ishlari hajmi 2023-yilning yanvar-iyun oylariga nisbatan 109,0 % ni tashkil etgan holda 2 996,2 mlrd. so‘m miqdorida qayd etildi.




**Shahar va tumanlar bo'yicha kichik korxona va mikrofirmalar tomonidan
bajarilgan ishlari hajmi va o'sish sur'atlari**
(2024-yilning yanvar-iyun oylarida)



Ma'lumot uchun: ko'rib chiqilayotgan davrda kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlaring eng katta hajmi Andijon shahrida (1 431,6 mlrd. so'm), Andijon tumanida (202,6 mlrd. so'm) va Shahrixon tumanida (242,3 mlrd. so'm) qayd etildi.

Qurilish ishlaringning umumiy hajmidagi norasmiy sektorning ulushi, %da (yanvar-iyun oylarida)



Norasmiy sektorda qurilish ishlaringning ulushi 14,7 % ni yoki 546,4 mlrd. soʻmni tashkil etib, 2023-yilning yanvar-mart oylariga nisbatan 71,0 % ni tashkil etdi. Shundan 404,3 mlrd. soʻmi yakka tartibdagi uy-joy qurilishiga toʻgʻri kelib, 2023-yilning yanvar-mart oylariga nisbatan 65,2 % ni, jismoniy shaxslar tomonidan noturar-joylar qurilishi 23,8 mlrd. soʻmni va 66,2 % ni, yakka tartibdagi turar-joylarni taʼmirlash ishlari 118,3 mlrd. soʻmni va 103,8 % ni tashkil etdi.




**Shahar va tumanlar bo‘yicha qurilish ishlaring umumiy hajmidagi
norasmiy sektorning hajmi va o‘sish sur’atlari**
(yanvar-iyun oylarida)



Ma’lumot uchun: ko‘rib chiqilayotgan davrda norasmiy sektor tomonidan bajarilgan qurilish ishlaring eng katta hajmi Andijon shahrida (52,8 mldr. so‘m), Asaka tumanida (74,6 mldr. so‘m) va Paxtaobod tumanida (58,0 mldr. so‘m) qayd etildi.

**Mulkchilik shakli davlat va nodavlat bo‘lgan tashkilotlar tomonidan
bajarilgan qurilish ishlari hajmi, mlrd. so ‘mda**
(yanvar-iyun oylarida)



Davlat mulkchiligidagi tashkilotlar tomonidan jami 258,2 mlrd. so‘m qurilish ishlari bajarildi. Nodavlat mulkchiligidagi tashkilotlar tomonidan esa, 3467,8 mlrd. so‘m qurilish ishlari bajarildi. Ularning viloyatdagi ulushi mos ravishda 93,1 % va 6,9 % ni tashkil etdi.



Ma’lumot uchun: nodavlat mulk obyektlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmida eng yuqori ulush Xonobod tuman (ushbu shahardagi qurilish ishlari umumiyligi hajmining 99,8 %), Pahtaobod tumanida (qurilish ishlari umumiyligi hajmining 99,2 %) va Bo‘ston tumanida (ushbu tumandagi umumiyligi qurilish ishlarining 99,1 %) qayd etildi.

STATISTIK KO'RSATKICHLARGA IZOHLAR

Nomoliyaviy aktivlarga kiritilgan investitsiyalar bu – real mablag‘larni yaratishga yo‘naltirilgan investitsiyalar bo‘lib, quyidagilarni o‘z ichiga oladi: asosiy kapitalga o‘zlashtirilgan investitsiyalar, kapital ta’mirlashga xarajatlar, nomoddiy aktivlarga kiritilgan investitsiyalar (patentlar, litsenziyalar, dasturiy mahsulotlar, yer maydonlaridan va tabiiy resurslardan foydalanish huquqlari va boshqalar).

Asosiy kapitalga o‘zlashtirilgan investitsiyalarga barcha turdagি qurilish ishlariga qilingan xarajatlar; asbob-uskunalarni montaj qilish bo‘yicha xarajatlar; mashina, asbob-uskunalar (montaj talab etiladigan va talab etilmaydigan), transport vositalari, jihoz va xo‘jalik inventarini sotib olish; boshqa kapital ishlar va xarajatlar kiradi. Asosiy kapitalga o‘zlashtirilgan investitsiyalar hajmi to‘g‘risidagi ma’lumotlar, ilgari boshqa tashkilotlarning asosiy fondlarida hisobga olingan asbob-uskunalar, binolar va inshootlar (yoki ularning ehtiyoq qismlari)ni sotib olishga qilingan xarajatlarsiz keltirilgan.

Chet el investitsiyalari – asosan kelgusida foya olish maqsadida, O‘zbekiston Respublikasi hududidagi korxona va tashkilotlarga kiritilgan chet el kapitali.

To‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar bu – korxonaga to‘liq egalik qiluvchi yoki korxona aksionerlik kapitalining 10 % dan kam bo‘limgan qismini nazorat qiluvchi, ya’ni korxonani boshqarishda ishtirok etish huquqigi ega bo‘lgan, to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investor yuridik yoki jismoniy shaxs tomonidan kiritilgan investitsiyalar.

Investorlar – yuridik va jismoniy shaxslar bo‘lib, qarorlarni qabul qiluvchi va o‘z mablag‘lari, qarz mablag‘lari yoki jalb qilingan mablag‘larni investitsiya ko‘rinishida investitsion loyihalarga kiritishni amalga oshiruvchi hamda ulardan maqsadli foydalanimishini ta’minlab beruvchi investitsion faoliyat sub’ektlari hisoblanadi.

Buyurtmachilar – investitsion jarayonning qatnashchilari. Buyurtmachi sifatida investorning o‘zi, shuningdek, investor tomonidan amaldagi korxonalarni, binolarni, inshootlarni yangi qurilishi, qayta ta’mirlash, kengaytirish va texnik qayta qurollantirishni amalga oshirishlari uchun vakil etib tayinlangan jismoniy va yuridik shaxslar faoliyat ko‘rsatishlari mumkin. Shu bilan birga buyurtmachi investitsion jarayon qatnashchilarining tadbirkorlik va boshqa faoliyatiga, agarda ular orasidagi shartnomada nazarda tutilmagan bo‘lsa, aralashmasliklari lozim.

Pudratchi – kapital qurilish uchun pudrat shartnomasi asosida bino va inshootlarni qurish bo‘yicha qurilish-montaj, qayta ta’mirlash, kapital ta’mirlash hamda texnologik va boshqa uskunalarni montaj qilish, sozlash va boshqa pudrat ishlarini bajarish bilan shug‘ullanadi.